FARG'ONA VILOYATIDA POST-COVID-19 BILAN ASSOTSIRLANGAN OVQAT HAZM QILISH TIZIMI KASALLIKLARINING TARQALISHI VA XAVF OMILLARI

Boltaboyev Alisher Murodiljon o'g'li
Central Asian Medical University, 1-sonli Ichki kasalliklar kafedrasi assistenti, Farg'ona, O'zbekiston
e-mail: murodilovichalisher@gmail.com
ORCID: 0009-0008-8702-0392

Annotatsiya. Farg'ona shahrida COVID-19 infeksiyasini o'tkazgan 18-60 yoshli 1605 nafar aholi orasida Post-COVID-19 bilan assotsirlangan ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (HAK) va ularning xavf omillari o'rganildi. Eng ko'p gastroduodenit (19,9%), ezofagit (15,7%) va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi (12,6%) aniqlandi. Xavf omillari orasida gipomagniyemiya (25,3%), gipokaliyemiya (24,4%) va semizlik (17,2%) birinchi o'rinlarni egalladi.

Kalit so'zlar: Post-COVID-19, ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, epidemiologiya, xavf omillari, gastroduodenit, gipomagniyemiya, gipokaliyemiya.

KIRISH

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Post-COVID-19 holatini o'tkir infeksiyadan keyin 3 oy ichida boshlanadigan, kamida 2 oy davom etadigan va boshqa tashxis bilan izohlanmaydigan alomatlar majmuasi deb ta'riflaydi [1]. Bu alomatlar orasida hazm a'zolari shikoyatlari ko'p uchraydi.

Italiyada kasalxonadan chiqarilgan bemorlarning 87,4% ida kasallik boshlanganidan o'rtacha 60 kun o'tib ham kamida bitta alomat saqlangan [2]. 47 910 nafar bemorni qamragan meta-tahlilda infeksiyani o'tkazganlarning 80% ida bir yoki bir nechta uzoq muddatli alomat qayd etilgan [4]. AQSh faxriylarining 154 068 nafarlik kohortasida COVID-19 o'tkazganlarda bir yil davomida dispepsiya, gastroezofageal reflyuks, peptik yara, o'tkir pankreatit, jigar va o't yo'llari kasalliklari xavfi nazorat guruhlariga qaraganda yuqori bo'lgan [5]. Ichak mikrobiotasidagi o'zgarishlar esa virus yo'qolganidan keyin ham 30 kungacha saqlangan [3].

O'zbekistonda, xususan Farg'ona vodiysida, Post-COVID-19 bilan assotsirlangan HAK epidemiologiyasi aholi darajasida hali o'rganilmagan.

Tadqiqot maqsadi: Farg'ona viloyati sharoitida Post-COVID-19 bilan assotsirlangan HAKning tarqalishini, uning gender, yosh, hududiy va etnik xususiyatlarini hamda xavf omillarini aniqlash.

MATERIAL VA USULLAR

Bir vaqtli epidemiologik tadqiqot JSST talablariga muvofiq Farg'ona shahri poliklinikalarida o'tkazildi. Tasodifiy tanlov yo'li bilan COVID-19 o'tkazgan 18-60 yoshli 1605 nafar aholi jalb qilindi: 853 ayol (53,1%) va 752 erkak (46,9%). Ulardan 1165 nafari shahar, 440 nafari qishloq aholisi edi; 1583 nafari (98,63%) mahalliy (o'zbek) millat vakili bo'ldi.

Tekshiruv so'rovnoma ("Yuqumli bo'lmagan surunkali kasalliklarni aniqlash uchun anketa"), biokimyoviy (xolesterin, triglitseridlar, qon zardobidagi kaliy va magniy), fizikaviy va instrumental (arterial bosim, antropometriya, UTT, rentgenologik tekshiruv, EKG) usullardan iborat bo'ldi. Xavf omillari JSST mezonlari bo'yicha baholandi: gipokaliyemiya K^+ <3,5 mmol/l; gipomagniyemiya Mg^{2+} <0,65 mmol/l; dislipidemiya umumiy xolesterin >5,1 mmol/l va triglitseridlar >1,7 mmol/l; gipodinamiya

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

haftasiga 2 soatdan kam jismoniy faollik; meva-sabzavotni kam iste'mol qilish sutkasiga 400 g dan kam. Gastrit tashxisi Sidney tizimi mezonlari asosida qo'yildi.

Statistik tahlil Microsoft Excel va IBM SPSS Statistics 27.0 dasturlarida bajarildi. χ^2 testi, Fisher aniq testi, Student t-testi, Mann-Uitni U-testi, Pirson va Spirmen korrelyatsiyasi, nisbiy xavf (RR) va 95% ishonch intervali (II) qo'llanildi.

NATIJALAR

HAK tarkibida gastroduodenit (19,9%), ezofagit (15,7%) va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi (12,6%) yetakchi bo'ldi. Keyingi o'rinlarda surunkali xoletsistit (10,1%), oshqozon yara kasalligi (9,8%), enterokolit (8,4%) va surunkali toshli xoletsistit (7,9%) turdi. Surunkali gepatit (6,6%), pankreatit (5,9%) va jigar sirrozi (3,2%) kamroq uchradi.

Bemorlar orasida ayollar 53,1%, erkaklar 46,9% ni tashkil etdi (RR=1,58; 95% II 1,12-2,01; P>0,05). Bemorlarning 95,5% i jismoniy mehnat bilan, 3,8% i aqliy mehnat bilan shug'ullanardi. HAK 18-29 yoshda (37,1%) va 50-59 yoshda (30,6%) eng ko'p, 30-39 yoshda esa eng kam (6,6%) aniqlandi. Mahalliy aholi ulushi 97,9% bo'ldi; ezofagit (15,4% va 0,3%) va gastroduodenit (19,2% va 0,7%) bo'yicha farqlar ishonchli edi (P<0,05).

Xavf omillari quyidagi chastotada qayd etildi: gipomagniyemiya 25,3%, gipokaliyemiya 24,4%, semizlik 17,2%, dislipidemiya 13,2%, ruhiy zo'riqish 12,7%, irsiy moyillik 12,5%, gipodinamiya 12,4%, meva-sabzavotni kam iste'mol qilish 12,1%, chekish 3,8%. Elektrolit buzilishlari va semizlik boshqa omillarga qaraganda ishonchli ravishda ko'p uchradi (P<0,01). Xavf omillari ayollar va erkaklarda deyarli teng taqsimlandi (49,7% va 50,3%; P>0,05). Shahar aholisida ularning ulushi 74,7%, qishloqda 25,3% bo'ldi (RR=1,15; 95% II 1,07-1,24).

MUHOKAMA

Gastroduodenit, ezofagit va duodenal yaraning ustunligi xorijiy kohort ma'lumotlariga mos keladi: Xu va hammualliflari ham postkovid davrda aynan kislotaga bog'liq kasalliklar xavfi oshganini ko'rsatgan [5]. SARS-CoV-2 oshqozon-ichak epiteliysiga ACE2 retseptorlari orqali kiradi, mikrobiota disbalansi esa shilliq qavatdagi yallig'lanishni cho'zadi [3]. COVID-19 pandemiyasi sharoitida hazm a'zolari kasalliklarini olib borish bo'yicha vaqtinchalik tavsiyalar ham shu bemorlarga alohida yondashuv kerakligini ko'rsatadi [6].

Gipomagniyemiya va gipokaliyemiyaning yetakchiligi alohida e'tiborga loyiq. Diareya, ovqat iste'molining kamayishi va buyrak orqali yo'qotish elektrolitlar darajasini tushiradi. Kaliy va magniy yetishmasligi esa ichak motorikasini va shilliq qavat tiklanishini susaytiradi. Shu tariqa bir-birini kuchaytiruvchi halqa hosil bo'ladi. Bu omillarni oddiy biokimyoviy tahlil bilan aniqlash va tuzatish mumkin, shuning uchun ular profilaktika uchun qulay nishondir.

Ayrim natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish kerak. Jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar (99,3%), mahalliy aholi (98,63%) va shahar aholisi (72,6%) tanlanmaning o'zida ustun edi. Demak, bu guruhlarda HAK va xavf omillari ulushining yuqoriligi ko'p jihatdan tanlanma tarkibini aks ettiradi. Guruhlar bo'yicha haqiqiy xavfni baholash uchun mutanosib tanlanmali tadqiqotlar zarur [7].

XULOSA

Farg'ona viloyatida Post-COVID-19 bilan assotsirlangan HAK tarkibida gastroduodenit, ezofagit va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligi ustunlik qiladi. Asosiy xavf omillari gipomagniyemiya, gipokaliyemiya va semizlikdir. COVID-19 o'tkazgan bemorlarni dispanser kuzatuvida qon zardobidagi kaliy va magniyni muntazam tekshirish hamda tana vaznini nazorat qilishni hududiy profilaktika dasturiga kiritish tavsiya etiladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Soriano JB, Murthy S, Marshall JC, Relan P, Diaz JV; WHO Clinical Case Definition Working Group on Post-COVID-19 Condition. A clinical case definition of post-COVID-19 condition by a Delphi consensus. Lancet Infect Dis. 2022;22(4):e102-e107. doi:10.1016/S1473-3099(21)00703-9
2. Carfì A, Bernabei R, Landi F. Persistent symptoms in patients after acute COVID-19. JAMA. 2020;324(6):603-605. doi:10.1001/jama.2020.12603
3. Yeoh YK, Zuo T, Lui GC, et al. Gut microbiota composition reflects disease severity and dysfunctional immune responses in patients with COVID-19. Gut. 2021;70(4):698-706. doi:10.1136/gutjnl-2020-323020
4. Lopez-Leon S, Wegman-Ostrosky T, Perelman C, et al. More than 50 long-term effects of COVID-19: a systematic review and meta-analysis. Sci Rep. 2021;11(1):16144. doi:10.1038/s41598-021-95565-8
5. Xu E, Xie Y, Al-Aly Z. Long-term gastrointestinal outcomes of COVID-19. Nat Commun. 2023;14(1):983. doi:10.1038/s41467-023-36223-7
6. Драпкина О.М., Маев И.В., Бакулин И.Г. и др. Временные методические рекомендации: «Болезни органов пищеварения в условиях пандемии новой коронавирусной инфекции (COVID-19)». Профилактическая медицина. 2020;23(3-2):120-152.
7. Болтабоев А.М. Post-COVID-19 билан ассоциирланган овқат ҳазм қилиш тизими касалликлари эпидемиологияси, профилактикаси ва даволаш усулларини тубдан такомиллаштириш: тиббиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Андижон, 2025.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.